

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA ADOLAT TALQINIGA DOIR HIKOYATLAR TAHLILI

Xayitgul Aqqulova

***Mutaxassislik: 5A120101 -Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) (2-
bosqich)***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari haqida fikr yuritilgan. “Saddi Iskandariy” dostonidagi hikoyatlar tahlil qilingan, jamiyat taraqqiyotida adolat konsepsiyasining o'рни ochib berilgan.

Buyuk mutafakkir, davlat arbobi bo'lmish Alisher Navoiy ijodida azaldan adabiyotning asosiy mavzularidan bo'lmish adolat g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallab keladi. Ijodkor asarlarida, jumladan, “Saddi Iskandariy” dostonida muallifning ijodiy mehnati natijasida adolat mavzusi va uning inson, millat hayotiga ta'siri ruhiy va badiiy hodisaga aylangan. Navoiy dostonida har tomonlama mukammal, komil shoh obrozi yaratgan. “Navoiy komil insoniy jamiyat qurish uchun Iskandardek olim va odil podshoh kerak, degan degan xulosani bayon etadi”¹. Bu esa o'z navbatida asar g'oyasini tashkil etgan bo'lib, muallif har bir ta'rif, har bir hikoyat, har bir hikmatni shohlik, ogohlik, adolatparvarlik masalalariga taqaydi.

Dostonni tahlil qilar ekanmiz, asar tarkibidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar, hikoyatlar, savol-javob va lirik xotimalar o'zaro o'rin almashgan holda kelganligini kuzatamiz. Shu sababli Iskandar obrozini o'rgangan olim E.A.Kostyuxin “Navoiy dostonida falsafiy umumlashmalar bosh qahramon tasvirini parchalab yuboradi”, deb hisoblaydi.² Bizningcha esa unday emas. Doston strukturasi izchil, mantiqiy tarzda tuzilgan. Asar boblari uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining mantiqiy davomi nisoblanadi, bir-birini to'ldirib boradi. Muallif biron hikmatning yoki savol-javobning mazmunini to'laroq ochish, dalillash uchun hikoyat keltirib o'tadi. Chunki Navoiy ijodida dalilash yetakchi prinspdir. Shu o'rinda taniqli olim Y. Is'hoqovning quyidagi mulohazalari e'tiborli: “Xamsa”da mantiqan asoslanmagan birorta voqea yoxud detalni topa olmaysiz. Har bir epizod yoki voqea konkret bir sababning oqibati sifatida yuzaga chiqadi”³. Demak, ijodkor har bir voqeani mantiqan

¹ Salohiy D. Nizomiy va Navoiy “Xamsa”larining uslubiy xususiyatlari. Alisher Navoiy ijodi va qiyosiy tahlil masalalari. Toshkent. Tamaddun, 2017. – B. 41

² Костюхин Э. А. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. Москва: Наука, 1972. – S. 80-85.

³ Исҳоқов Ё. Хамса поэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, 2 сон. – B. 41

dalillagan. “O‘z mulohazalarini shoir adolatli va adolatsiz hukmdorlar hayotida olingan voqealar bilan sharhlab beradi”.⁴ Hikoyatlar ichida odil va zolim hukmdorlar qiyoslanib, ularning yurt boshqaruvi natijasida mamlakatning obod bo‘lishi, yoinki vayronagarchilikka yuz tutishi bayon etiladi.

Dostonda jami o‘n yettita hikoya bo‘lib, 17-bobda Iskandarning gadolikni ixtiyor etgan podsho bilan uchrashuvi haqidagi hikoyat berilgan. Shoh va darvesh obrozlarining zidlanishi Navoiyning boshqa asarlari tarkibida ham uchraydi. Ma’lumki, tasavvuf ahli shohni dunyo quli deb hisoblaydi. Chunki uning fikr-u xayoli mol-u dunyoga egalik qilish bo‘ladi. Mol-u dunyoga egalik qilish uchun esa u, albatta, zulm qiladi. Darvesh esa shohning butunlay teskarisidir. Shoir talqinicha, darvesh kabi o‘zligidan kechgan, o‘z nafsini o‘ldirgan insongina o‘z manfaatini emas, raiyat manfaatini o‘ylaydi, adolat bilan yurtni boshqaradi. “Ayni zamonda Navoiy mutafakkir murabbiy sifatida shoh va shahzodalarni to‘g‘ri yo‘lga boshlamoqchi, ularda saltanat g‘ururini pasaytirmoqchi, ularni hayotga, odamlarga to‘g‘ri qarashga o‘rgatmoqchi bo‘lgan”, -deya adabiyotshunos olim A. Qayumov o‘z fikrini bildirib o‘tgan.⁵ Ijodkor hikoyatda gado obrozi orqali bu dunyoning o‘tkinchiligi-yu, hammaning borar joyi birligi, toj-u taxt, hukmronlik uchun nafsga qul bo‘lmaslik kerakligini uqtiradi.

Shu o‘rinda Iskandar nega aynan o‘sha xalq ichidan sulton tanlaydi, degan savol tug‘iladi. Bu yerda ham bir ijtimoiy masala ko‘tarilgan. Bizningcha, hukmdor o‘sha yurt fuqarosidan tanlansa, xalqqa zulm qilmaydi, yurt obodligi, fuqarolar tinchligi uchun jon kuydiradi. Chunki u o‘z yurti, o‘z yurtdoshlari. Agar boshqa el kishisini hokim qilib qo‘yadigan bo‘lsa, u ko‘p hollarda mol-u dunyo to‘plashga, kayf-u safoga berilib, yurt boshiga o‘ziga o‘xshagan noinsof, ochko‘z va adolatsiz beklarni to‘plashi, xalqqa soliqlar solishi, zulm qilishi mumkin. Gadoning so‘zlarini eshitgan podsho lol bo‘lib qoladi, darveshning o‘zidan ham buyukligiga tan beradi. Darhaqiqat, himmati buyuk gado uchun shohlik martabasi pastdir, agar faqir kishi oliyhimmat bo‘lsa, uning ko‘ziga zamon shohi ham g‘arib va haqir ko‘rinadi. Gado bilan uchrashuv Iskandar uchun tarbiya vazifasini ham bajaradi. Chunki u shu voqea tufayli dunyoning o‘tkinchi-yu, u dunyoda shoh-u gadoning bir o‘rinda bo‘lishini yanada teranroq anglaydi. Asar oxirida onasiga vasiyati, tobut ichidan qo‘li chiqarilib qo‘yilishi epizodi ham bunga misoldir.

⁴ Орипов М. Алишер Навоий ижодида адолат ғояси. Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. 1-сон – В. 3.

⁵ Қайумов А. Садди Искандарий. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 173.

Islom falsafasida adolat konsepsiyasi o'ziga xos tarzda ifodalanganligini kuzatamiz. Jumladan, "G'ofir" surasida "Kimki biror yomonlik qilsa, unga (oxiratda o'sha yomonligi) barobaridagina jazo berilur. Erkakmi, ayolmi – kimki mo'minlik holida biror yaxshilik qilsa, aynan o'shalar jannatga doxil bo'lurlar. U joyda ularga behisob rizq berilur", – deb aytiladi.⁶

Xususan, Mahmud hikoyatida ham adolatparvarlikning nelarga qodirligi qalamga olingan. Hikoyatda shoh Mas'ud tushida otasini ko'rishi tasvirlanadi. Otasi jannatmisol bog' ichida yurarmish. Shoh Mahmud podshohligida doimo odillik bilan davlatni boshqarishni o'ylaganini, Hindistonni fath qilgandan keyin bir mazlum kampirga qilgan adolati tufayli vafotidan so'ng shu makonga tushganini so'zlaydi. Ayon bo'ladiki, shohning jamiki gunohlari mushtipar kampirga qilgan adolati tufayli kechirildi va mukofot berildi.

Ma'lumki, bir soatlik adolat barcha insonlar-u jinlarning toatidan afzalroq. Shoh Mahmudning ham birgina odilligi uning jannatga tushishi uchun ko'prik vazifasini o'tadi. Ota o'g'lini ham odillik bilan ezgu ishlarni amalga oshirishga undaydi, aks holda so'nggi pushaymoni foyda bermasligi mumkin. Adolatparvarlik nainki u dunyo saodatiga, balki bu dunyo rohat-farog'atiga ham yetkazadi.

Shoh Mas'ud adolatni o'ziga shior qilgan holda ota buyrug'ini bajarishga ahd qiladi.

Ya'ni, Adolat tariqin shior ayladi,

Ato buyrug'in ixtiyor ayladi.

Qayu shahki adl etsa Mas'uddek,

Netong haq nasib etsa Mahmuddek.⁷

Bu tush otaning o'g'liga nasihati sifatida yangraydi. Otalar nasihatini bajargan o'g'il esa Alloh marhamatiga erishishi shubhasiz. "Boshqacha aytganda adolatli shoh-jannatiy; zolim, sitamkor shoh esa-do'zaxiy, yomon odam.⁸ Zero, har bir davlat rahbari Mas'uddek adolatni o'ziga shior aylasa, zolimlarni jazolasa, shoh Mahmud kabi mukofotga sazovor bo'lmay qolmas.

Navoiy adolat va adolatsizlikni, odil va zolim shohlarni oddiygina bayon etib qolmasdan, hayotiy misollardan ham keltirib o'tadi. "Badbinlik, ko'pchilikka g'amxo'rlik qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishini u Abu Said Ko'ragon hikoyatida namoyish qiladi",-deya ta'kidlaydi A. Qayumov.⁹ Navoiy bu hikoyatni shunchaki keltirib o'tirmaydi. Hikoyat ostida ma'lum

⁶ Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони Карим маъноларининг таржимаси. Тошкент: 2001. –Б. 471.

⁷ Алишер Навоий. МАТ. XX жилдлик. XI жилд. Хамса. Тошкент: Фан, 1993. – В. 124

⁸ Мухиддинов М. Комил инсон-адабиёт идеали. Тошкент: Маънавият, 2005. – В. 119.

⁹ Қаюмов А. Садди Искандарий. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 175.

darajada moziy haqiqati yotibdi. Ma'lumki, o'tmishda Mironshohning nabirasi bo'lgan Abu Said ismli sulton o'tgan. Hikoyat aynan u haqida. "Bu voqeadan Navoiy shaxsan xabardor bo'lgan, u shoir yashagan zamonda yuz bergan edi".¹⁰ Qolaversa, Navoiyning ota-onasidan ayrilgach sarson bo'lib yurtidan olisda yurishiga ham aynan Abu Said sababchi bo'lgan. "Hirot taxtiga da'vogar Husayn Boyqaro bilan yaqin do'st ekanini bilgan Abu Said va uning odamlari yosh shoirdan shubhalanib, unga yordam berish, ish bilan ta'minlash o'rniga, uni qattiq ta'qib etadilar".¹¹ Lekin ijodkorning shaxsiy adovati hikoyatning biron o'rnida sezilmaydi. Navoiyning maqsadi hikoya orqali ma'lum ma'noda boshqa temuriylarni ham sulton ahvoliga tushib qolmaslikka, lashkari holidan ogoh bo'lishga chorlash edi.

Ijodkor shoh halokatiga sabab qilib uning boylikka ruju qo'yishi, sipohini moliyaviy jihatdan yaxshi ta'minlamasligini ko'rsatadi. Lashkar shoh uchun jang qildimi, hukmdor ham adolat bilan shunga yarasha maosh joriy qilishi lozim edi. Navoiy sipohidan ayrilgan shohni gulistonidan ayrilgan gulga, badandan ajralgan yurakka qiyoslaydi. Bunday gul oxir-oqibatda quriydi, badansiz yurakning esa bir parcha go'shtdan farqi yo'qdir. Shoir shoh va sipohning oshiq-mashuqlardek bir-biri bilan ittifoqda bo'lishi, har bir ishni kelishib qilishi kerakligini bayon etadi, barcha shohlarga qo'shin ta'minotini yaxshilash kerakligini uqtirmoqchi bo'ladi.

"Adolat shuni talab qiladiki, odil shoh do'st bilan dushmani ajrata bilishi, do'stlarini rag'batlantirib, dushmanlarini jazolamog'i kerak",-deb yozadi M. Oripov.¹²Xususan, dostonida Bahromi go'r hikoyati berilgan bo'lib, unda shohning olachuq eliga mehmon bo'lishi, ularni qilgan ishiga yarasha mukofotlashi va jazolashi bayon etilgan. Bir qarashda hikoyatda adolat haqida hech qanday gap ketmagandek tuyuladi, ammo Navoiy shoh Bahromning adolatli qaror chiqarishiga, insonlarning qilgan amaliga yarasha mukofotlashiga e'tiborini qaratadi va hikoyat so'nggini

Bular tavrida turfa holat ko'rung,

*Anga ham tariqi adolat ko'rung,*¹³-

deya tugatadi. Hikoyat orqali har kimning fe'liga, qilgan ishiga yarasha muomalada bo'lish ham adolatning bir ko'rinishi ekanligini anglaymiz. Demak, Navoiy hadislarda ta'kidlanganidek yomonlik qilgan odamni kechirib, indamay ketish kerak, degan g'oyaga qarshi bo'lgan ekan-da. Masalaga sal

¹⁰ Қаюмов А. Садди Искандарий. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 176.

¹¹ Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 14.

¹² Орипов М. Алишер Навоий ижодида адолат ғояси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. 1-сон – В. 3.

¹³ Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. XI жилд. Хамса. Тошкент: Фан, 1993. – В. 390.

boshqacharoq yondashsak, savolga javob topamiz. Hukmdor Allohning yerdagi soyasidir, u xuddi cho'pon qo'yni bo'ridan himoyalagani kabi fuqarosini zolimlardan himoya qilishi, zolimlarni yana boshqa fuqarolarga ham jabr qilmasligi uchun jazolashi shart. Zero, qonun ustuvor bo'lgan yurtda tinchlik-osoyishtalik qaror topishi muqarrar.

Ma'lumki, Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy-u Navoiylar asarlarida Bahromni xudbin, maishatparast shoh sifatida tasvirlangan. Nega ijodkor "Saddi Iskandariy" dostonida uni adolatparvar shoh sifatida ta'riflagan? Chunki shoh Bahrom maishatparast, xudbin bo'lish bilan birga jasur sarkarda, adolatli shoh ham edi. Bu o'rinda Navoiy shoh Bahromning salbiy tomoniga emas, balki ijobiy xislatiga e'tibor berganligini kuzatamiz.

Navoiy adolat tasvirida mantiq talablaridan chetga chiqmagan holda fikrlarini dalillaydi, hikoyatlar keltiradi. Chunki davlat ishlarida qatnashgan shoir jamiyatning og'riqli nuqtalarini yaxshi bilardi. U yurtda adolatni qaror toptirish yo'lida butun kuchini, umrini safarbar etadi. Navoiyning butun umri, ijodi xalq manfaati uchun xizmat qilgani holda asarlari tarkibida adolat nizomini tuzadi. Adolat mezonlari esa hech qachon o'zgarmaydi, shu sababli Navoiy ijodida adolat masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Chunki "Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, lekin hech qachon adolatsizlikka chiday olmaydi".¹⁴ Jamiyat bor ekan, adolat hamma vaqt odamlarning diqqat markazida turadigan mavzuligicha qolaveradi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев. Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатият билан давом еттириб янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Исҳоқов Ё. Хамса поэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, 2 сон.
3. Костюхин Э. А. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. Москва: Наука, 1972.
4. Муҳиддинов М. Комил инсон-адабиёт идеали. Тошкент: Маънавият, 2005.
5. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. XI жилд. Хамса. Тошкент: Фан, 1993.
6. Орипов М. Алишер Навоий ижодида адолат ғояси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. 1-сон.

¹⁴ Мирзиёев. Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатият билан давом еттириб янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – В. 429.

7. Қаюмов А. Садди Искандарий. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.

8. Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

9. Salohiy D. Nizomiy va Navoiy "Xamsa"larining uslubiy xususiyatlari. Alisher Navoiy ijodi va qiyosiy tahlil masalalari. Toshkent: Tamaddun, 2017.

10. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси. Тошкент: 2001.